O'ZBEKISTONDA ILM-FANNI MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR.....	749
Mirkasimov Baxtiyer Mirvaxid o'g'li	
INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	756
Fazliyev Farrux Faxriddinovich	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI MAKROPRUDENSIAL TARTIBGA SOLISH	763
O'ktamov Nodirjon Maxamatnosir o'g'li	
KORXONALAR MOLIYAVIY-XO'JALIK FAOLIYATIGA SOLIQ MEXANIZMI TA'SIRINI SOLIQ XAVFI DARAJASI ASOSIDA BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	775
Babaxonov Ja'far Muxiddinovich	
HUDUDLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING O'RNI.....	782
Abdumalikov Abduxakim Abduvaliyevich	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDAGI TADBIRKORLIKNI MOLIYA-KREDIT ORQALI RAG'BATLANTIRISH AMALIYOTI	788
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
NAMANGAN VILOYATI REAL SEKTOR KORXONALARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	793
Axmadjonov Nurillo Shermirzayevich	
SANOAT KORXONALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	800
Omanov Bekhzod Gofur o'g'li	
Hoshimjonov Akhrorjon Zufarjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA DEPOZIT BAZASI YETARLILIGINI BAHOLASH	808
Saidov Doniyor Abdullayevich	
SANOAT KORXONALARINING DAVLAT XARIDLARIDA TO'LOV INTIZOMI VA MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASH	814
Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	
OLIY TA'LIM XIZMATLARIGA TALABNI SHAKLLANTIRUVCHI MARKETING OMILLARINING EKONOMETRIK MODEL	819
Egamov Sevinchbek	
HUDUDIY INVESTITSION JOZIBADORLIKNI KOMPLEKS BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN YONDASHUVI.....	825
Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich	



HUDUDIY INVESTITSION JOZIBADORLIKNI KOMPLEKS BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN YONDASHUVI

Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududiy investitsion jozibadorlikni kompleks baholashning integrallashgan yondashuvi tadqiq etilgan. Hududlarning investitsion salohiyatini aniqlashda iqtisodiy, moliyaviy, infratuzilmaviy, institutsional va mehnat omillarini tizimli ravishda baholash zarurati asoslangan. Investitsion jozibadorlikni alohida ko'rsatkichlar orqali baholashning cheklavlari ko'rsatilib, turli omillarni yagona baholash tizimida birlashtirishning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, hududlar o'rtasidagi investitsion imkoniyatlar tafovutini aniqlash, ularni jozibadorlik darajasiga ko'ra guruhlash hamda investitsiya siyosatini differensiallashtirish imkoniyatlari asoslangan. Tadqiqot natijalari hududlarning investitsion raqobatbardoshligini oshirish va investitsiya resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: hudud, investitsion jozibadorlik, kompleks baholash, integrallashgan yondashuv, investitsion salohiyat, infratuzilma, institutsional muhit, moliyaviy resurslar, mehnat salohiyati, investitsion raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной статье исследован интегрированный подход к комплексной оценке инвестиционной привлекательности регионов. Обоснована необходимость системной оценки экономических, финансовых, инфраструктурных, институциональных и трудовых факторов при определении инвестиционного потенциала регионов. Показаны ограничения оценки инвестиционной привлекательности на основе отдельных показателей и раскрыто научно-практическое значение объединения различных факторов в единую систему оценки. Также обоснованы возможности выявления различий в инвестиционных возможностях регионов, их группировки по уровню привлекательности и дифференциации инвестиционной политики. Результаты исследования направлены на совершенствование методических подходов, способствующих повышению инвестиционной конкурентоспособности регионов и эффективному использованию инвестиционных ресурсов.

Ключевые слова: регион, инвестиционная привлекательность, комплексная оценка, интегрированный подход, инвестиционный потенциал, инфраструктура, институциональная среда, финансовые ресурсы, трудовой потенциал, инвестиционная конкурентоспособность.

Abstract. This article examines an integrated approach to the comprehensive assessment of regional investment attractiveness. The study substantiates the need for a systematic assessment of economic, financial, infrastructural, institutional, and labor factors in determining the investment potential of regions. The limitations of assessing investment attractiveness based on individual indicators are identified, and the scientific and practical significance of combining various factors into a unified assessment system is highlighted. The study also substantiates the possibilities of identifying differences in investment opportunities among regions, grouping regions according to their level of attractiveness, and differentiating investment policy. The findings are aimed at improving methodological approaches that contribute to enhancing the investment competitiveness of regions and ensuring the efficient use of investment resources.

Keywords: region, investment attractiveness, comprehensive assessment, integrated approach, investment potential, infrastructure, institutional environment, financial resources, labor potential, investment competitiveness.

KIRISH

Bugungi sharoitda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Investitsiya oqimlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi esa mavjud resurslar hajmi bilangina emas, balki hududning institutsional, infratuzilmaviy, moliyaviy, mehnat va bozor salohiyati bilan ham belgilanadi. Shu bois hududning investitsion jozibadorligini faqat alohida ko'rsatkichlar asosida baholash uning real holatini to'liq ifodalash imkonini bermaydi.



Hududiy investitsion jozibadorlik ko'p omilli iqtisodiy kategoriya bo'lib, uni baholashda turli yo'nalishdagi ko'rsatkichlarni yagona tizimga birlashtirish zarur. Jumladan, hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligi, infratuzilmaning rivojlanganligi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, mehnat salohiyati, tadbirkorlik muhiti, institutsional barqarorlik va bozor sig'imi kabi omillar o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur omillarning har biri investitsion qarorlarning shakllanishiga turlicha darajada ta'sir ko'rsatishi sababli, ularni kompleks baholash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqib, hududiy investitsion jozibadorlikni kompleks baholashda iqtisodiy, institutsional va infratuzilmaviy ko'rsatkichlarni integratsiyalashgan holda tahlil qilish, ularning nisbiy ahamiyatini aniqlash hamda hududlar o'rtasidagi farqlarni yagona mezon asosida baholash dolzarb masalalardan biridir. Bunday yondashuv investitsion salohiyati yuqori va muammoli hududlarni aniqlash, investitsiya siyosatini differensiallashtirish hamda mavjud resurslarni ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada hududiy investitsion jozibadorlikni kompleks baholashning integrallashgan yondashuvini takomillashtirish masalalari tadqiq etiladi.

Hududlarning investitsion jozibadorligini baholashda alohida ko'rsatkichlardan foydalanish hududdagi mavjud imkoniyatlarning faqat muayyan jihatini aks ettiradi. Shu sababli investitsion muhitni to'liqroq tavsiflash uchun iqtisodiy, moliyaviy, institutsional va ijtimoiy omillarni yagona baholash tizimiga birlashtirish zarur. Integrallashgan yondashuv hududning investitsiyalarni qabul qilish salohiyati bilan bir qatorda, mavjud moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi, xususiy sektor va aholining investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki hamda davlatning ushbu jarayondagi ulushini ham hisobga olish imkonini beradi. Bunda ko'rsatkichlarning yo'nalishi ham muhim bo'lib, ayrim indikatorlarning yuqori qiymati hudud jozibadorligining ortishini bildirsa, davlat ishtiroki kabi ayrim ko'rsatkichlarning kamayishi ijobiy holat sifatida baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy investitsion jozibadorlikni baholash masalasi iqtisodiy rivojlanish, investitsion muhit, xorijiy kapitalni jalb qilish, hududlarning nisbiy afzalliklari va investitsiya faoliyatini rag'batlantirish bilan bog'liq holda turli tadqiqotlarda o'rganilgan. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarda hududlarning investitsion imkoniyatlarini shakllantiruvchi iqtisodiy, moliyaviy, institutsional va infratuzilmaviy omillarni aniqlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Hoshimov [1] milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlarini tadqiq etib, investitsiya oqimlarini kengaytirishning institutsional va iqtisodiy shart-sharoitlarini yoritgan. Mazkur tadqiqot xorijiy kapitalni jalb qilishda investitsion muhitning ahamiyatini asoslash bilan birga, hududlarning investitsion jozibadorligini shakllantiruvchi omillarni baholash zarurligini ko'rsatadi.

Madrahimov [2] O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sifatini oshirish masalalarini tadqiq qilgan bo'lib, investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida ko'rib chiqqan. Ushbu yondashuv hududiy investitsion jozibadorlikni baholashda investitsiya faolligi va iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Sabirov [3] hududlarning nisbiy afzalliklari va investitsion jozibadorligi omillarini o'rgangan. Tadqiqotda hududlarning investitsiya uchun mavjud ustunliklarini aniqlash masalasiga e'tibor qaratilishi investitsion jozibadorlikni faqat bitta ko'rsatkich orqali emas, balki hududning turli iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda baholash zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan mazkur yondashuv integrallashgan baholash metodikasini shakllantirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ergashev [4] hududlarning investitsion muhit jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish istiqbollarini Farg'ona viloyati misolida tadqiq etgan. Ushbu tadqiqot hududning investitsion imijini shakllantirish, mavjud imkoniyatlarni investorlar uchun namoyon etish va investitsiya oqimlarini jalb qilishda hududiy yondashuvning ahamiyatini ko'rsatadi. Bunda hududlar o'rtasidagi farqlarni hisobga olish investitsiya siyosatini tabaqalashtirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Kuziev [5] erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish masalasini tadqiq qilgan. Mazkur ishda soliq mexanizmlarining investitsiya faoliyatini rag'batlantirishdagi o'rni yoritilgan bo'lib, moliyaviy va fiskal omillar hududlarning investitsion jozibadorligini shakllantiruvchi muhim tarkibiy qismlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Bu esa hududlarni kompleks baholashda moliyaviy imkoniyatlar va investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlarini hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Rashidov [6] mintaqa iqtisodiyotini erkin iqtisodiy zonalar faolligining jahon tajribasini umumlashtirish asosida rivojlantirish masalalarini o'rgangan. Tadqiqotda hududiy rivojlanishda erkin iqtisodiy zonalar va ularga xos investitsion mexanizmlarning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Mazkur yondashuv hududlarning investitsion jozibadorligini baholashda institutsional sharoitlar, investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va hududiy iqtisodiy faollikni birgalikda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.



Raxmatullaev [7] hududlar investitsiya jozibadorligini oshirish istiqbollarini tadqiq etgan. Ushbu tadqiqot hududlarning investitsiya salohiyatini oshirish va investitsion muhitni yaxshilash masalalariga yo'naltirilganligi bilan mazkur mavzuga bevosita yaqin hisoblanadi. Hududlarning mavjud imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash hamda investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha yo'nalishlarni belgilash integrallashgan baholash natijalaridan amaliy foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini hududiy investitsion jozibadorlikni tizimli va integrallashgan holda baholash yondashuvi tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida hududlarning investitsion imkoniyatlarini tavsiflovchi iqtisodiy, moliyaviy, institutsional va infratuzilmaviy omillar o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi. Bunday yondashuv alohida indikatorlarning hudud investitsion jozibadorligidagi rolini aniqlash va ularni yagona baholash tizimida umumlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, guruhlash, umumlashtirish va integral baholash usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv orqali hududiy investitsion jozibadorlikning asosiy tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlandi. Qiyosiy tahlil yordamida hududlarning investitsion imkoniyatlari va mavjud farqlari baholandi. Statistik tahlil hududlarning investitsiya faoliyati, moliyaviy imkoniyatlari va investitsiya manbalaridagi o'zgarishlarni aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur jadvalda hududiy investitsion jozibadorlikni kompleks baholash uchun sakkizta asosiy yo'nalish va ularni ifodalovchi indikatorlar tizimlashtirilgan. Investitsion faollik asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi orqali, xususi sektor faolligi markazlashmagan moliyalashtirish manbalari orqali, aholi ishtiroki esa aholi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar orqali baholanadi. Shuningdek, moliyaviy imkoniyat, investitsiya manbalarining diversifikatsiyasi va xorijiy kapitalni jalb qilish darajasi ham hisobga olinadi. Ushbu indikatorlarning birgalikdagi tahlili hududlarning investitsion muhitini bir tomonlama emas, balki ko'p omilli yondashuv asosida baholash imkonini beradi.

1-jadval

Hududiy investitsion jozibadorlikni kompleks baholashning integrallashgan ko'rsatkichlari¹

№	Baholash yo'nalishi	Asosiy ko'rsatkich	O'lchov birligi	Baholash yo'nalishi
1	Investitsion faollik	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	mlrd so'm	↑ yuqori bo'lishi ijobiy
2	Xususi sektor faolligi	Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar	mlrd so'm	↑ yuqori bo'lishi ijobiy
3	Aholi ishtiroki	Aholi mablag'lari hisobidan investitsiyalar	mlrd so'm	↑ yuqori bo'lishi ijobiy
4	Davlat ishtiroki	Davlat mulkchiligidagi subyektlar investitsiyalari ulushi	%	↓ kamayishi ijobiy
5	Moliyaviy imkoniyat	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalar	mlrd so'm	↑ yuqori bo'lishi ijobiy
6	Investitsiya manbalarining diversifikatsiyasi	Markazlashmagan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi	%	↑ yuqori bo'lishi ijobiy
7	Institutsional jozibadorlik	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi	mlrd so'm	↑ yuqori bo'lishi ijobiy
8	Hududning umumiy investitsion salohiyati	Investitsiyalarning o'sish sur'ati	%	↑ yuqori bo'lishi ijobiy

Keltirilgan indikatorlar tizimi hududiy investitsion jozibadorlikni baholashda iqtisodiy faollik, moliyaviy imkoniyat va institutsional sharoitlarni o'zaro bog'lash imkonini beradi. Asosiy kapitalga investitsiyalar va investitsiyalar o'sish sur'atining yuqori bo'lishi hududdagi investitsion faollikning kuchli ekanligini bildiradi. Markazlashmagan mablag'lar, aholi resurslari va bank kreditlarining ko'payishi esa moliyalashtirish manbalarining kengayayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, markazlashmagan investitsiyalar ulushining ortishi hududning davlat mablag'lariga qaramligini kamaytirib, xususi kapitalning rolini kuchaytiradi. Davlat ulushining pasayishi ham investitsiya jarayonlarida bozor mexanizmlari va xususi sektor ishtiroki ortayotganidan dalolat beradi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi esa hududning tashqi investorlar uchun jozibadorligini bevosita

¹ <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



ifodalovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Shunday qilib, mazkur indikatorlarni yagona integral indeksga birlashtirish hududlarni o'zaro taqqoslash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda investitsion siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilash uchun amaliy jihatdan asoslangan metodik imkoniyat yaratadi.

Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlashda integral baholash natijalarini ma'lum darajalarga ajratish hududlar o'rtasidagi farqlarni aniqroq ko'rsatish va investitsiya siyosatini tabaqalashtirish imkonini beradi. Chunki hududlarning iqtisodiy salohiyati, infratuzilma bilan ta'minlanganligi, moliyaviy imkoniyatlari, xususiy sektor faolligi va institutsional sharoitlari bir xil emas. Shu sababli barcha hududlar uchun bir xil investitsiya siyosatini qo'llash kutilgan natijani bermasligi mumkin. Integral indeks asosida guruhlash esa har bir hududning mavjud imkoniyatlari va muammolarini hisobga olgan holda tegishli choralarni belgilashga xizmat qiladi.

Mazkur jadvalda hududlar investitsion jozibadorlik darajasini baholash uchun 0 dan 1 gacha bo'lgan integral indeks qiymatlari beshta guruhga ajratilgan. Indeks qiymati yuqori bo'lgan hududlarda investitsion salohiyat, infratuzilma, moliyaviy imkoniyatlar va institutsional sharoitlar nisbatan yaxshi shakllangan deb qaraladi. Bunday hududlarda asosiy e'tibor yirik, xorijiy va innovatsion loyihalarni jalb etishga qaratilishi mumkin. Indeksning quyi qiymatlari esa hududda investitsion faollikni cheklayotgan omillar mavjudligini bildiradi. Shu bois past reytingli hududlar uchun infratuzilmani rivojlantirish, moliyaviy rag'batlarni kuchaytirish va investorlar uchun qulay institutsional sharoit yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Ushbu guruhlash mezonlari hududiy investitsiya siyosatini aniq yo'naltirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Jadvalda keltirilgan mezonlar hududlarni investitsion jozibadorlik darajasiga ko'ra juda yuqori, yuqori, o'rtacha, past va juda past guruhlariga ajratish imkonini beradi. Integral indeksning 0,80–1,00 oralig'idagi qiymati hududning investitsion salohiyati yuqori ekanligini va yirik loyihalarni qabul qilish imkoniyatlari kengligini bildiradi. 0,65–0,79 oralig'idagi hududlarda mavjud qulay sharoitlardan foydalanib, innovatsion hamda xususiy investitsiyalarni ko'paytirish maqsadga muvofiq. 0,50–0,64 darajadagi hududlarda esa investitsion salohiyat mavjud bo'lsa-da, infratuzilma yoki institutsional muhit bilan bog'liq ayrim muammolarni bartaraf etish talab etiladi.

2-jadval
Hududlarni investitsion jozibadorlik darajasi bo'yicha kompleks guruhlash mezonlari²

№	Integral indeks qiymati	Investitsion jozibadorlik darajasi	Hududning tavsifi	Investitsiya siyosati bo'yicha tavsifa
1	0,80–1,00	Juda yuqori	Investitsion salohiyati va infratuzilmasi rivojlangan	Yirik va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish
2	0,65–0,79	Yuqori	Investitsiya uchun qulay iqtisodiy va institutsional sharoit mavjud	Innovatsion va xususiy investitsiyalarni kengaytirish
3	0,50–0,64	O'rtacha	Investitsion salohiyat mavjud, biroq ayrim cheklovlar mavjud	Infratuzilma va institutsional muhitni yaxshilash
4	0,35–0,49	Past	Investitsion faollik va moliyaviy imkoniyatlar nisbatan cheklangan	Soliq, infratuzilma va moliyaviy rag'batlarni kuchaytirish
5	0,00–0,34	Juda past	Investitsiya muhiti yetarli darajada shakllanmagan	Maxsus investitsiya dasturlarini amalga oshirish

Integral indeksning 0,35–0,49 oralig'ida bo'lishi hududdagi investitsion faollik va moliyaviy imkoniyatlarning yetarli darajada emasligini ko'rsatadi. Bunday hududlarda soliq imtiyozlari, kredit mexanizmlari va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish muhim. 0,00–0,34 oralig'idagi hududlarda esa investitsion muhitni shakllantirishga qaratilgan kompleks davlat dasturlariga ehtiyoj yuqori bo'ladi. Umuman, mazkur guruhlash tizimi hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan investitsiya siyosatini yuritish imkonini beradi. Bunda yuqori reytingli hududlarda investitsiyalarni kengaytirish, quyi reytingli hududlarda esa avvalo mavjud cheklovlarni kamaytirish va investitsion muhitning bazaviy shartlarini yaxshilashga e'tibor qaratish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari hududiy investitsion jozibadorlikni baholashda alohida iqtisodiy yoki moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanish hududning investitsiya uchun real imkoniyatlarini to'liq aks ettirmasligini ko'rsatadi. Chunki investor uchun hududning jozibadorligi iqtisodiy salohiyat bilan bir qatorda infratuzilma holati, institutsional barqarorlik, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, mehnat bozori, tadbirkorlik

2 <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



muhi va bozor sharoitlarining uyg'unligiga bog'liq. Shu sababli hududlar kesimida investitsion jozibadorlikni baholashda ko'rsatkichlarni tizimli ravishda birlashtiruvchi integrallashgan yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Integrallashgan baholash hududlarning investitsion imkoniyatlarini o'zaro taqqoslash, mavjud ustunlik va cheklovlarni aniqlash hamda investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash uchun zarur axborot bazasini shakllantiradi. Bunda iqtisodiy faollik, investitsiya hajmi, infratuzilma ta'minoti, moliyaviy imkoniyatlar, inson kapitali, institutsional muhit va bozor salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan foydalanish hududlarning real holatini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Fikrimizcha, integrallashgan baholash natijalaridan hududlarni investitsion salohiyat darajasiga ko'ra guruhlash va ularga nisbatan differensial investitsiya siyosatini amalga oshirishda foydalanish samarali natija beradi. Bunda yuqori jozibadorlikka ega hududlarda yirik va texnologik loyihalarni rag'batlantirish, o'rta darajadagi hududlarda infratuzilmaviy va moliyaviy cheklovlarni bartaraf etish, investitsion jozibadorligi past hududlarda esa institutsional va bazaviy infratuzilmani rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish lozim. Natijada hududlar investitsion raqobatbardoshligini oshirish va investitsiya resurslaridan samarali foydalanish uchun yaxlit metodik asos shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hoshimov J. Milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari: i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 54 b.
2. Madrahimov U. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sifatini oshirish yo'llari: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 68 b.
3. Sabirov A. Hududlarning nisbiy afzalliklari va investitsion jozibadorligi omillari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2018. – № 6. – 6-b.
4. Ergashev A. Hududlarning investitsion muhit jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish istiqbollari (Farg'ona viloyati misolida): (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018.
5. Kuziev R.R. Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish: i.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 64 b.
6. Rashidov M.K. Mintaqa iqtisodiyotini erkin iqtisodiy zonalar faolligining jahon tajribasini umumlashtirish asosida rivojlantirish: i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 55 b.
7. Raxmatullaev B.Ch. Hududlar investitsiya jozibadorligini oshirish istiqbollari: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>